

Navoiy davlat pedagogika institutining
2022 yil 22 sentabrdagi _____sonli
buyrug‘iga 1-ilova

**Navoiy davlat pedagogika instituti tasarrufidagi o‘rta maxsus va
professional ta’lim muassasalarining o‘quvchilariga “Rektor
stipendiyasi”ni tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi
nizom**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab Navoiy davlat pedagogika instituti (keyingi o‘rinlarda institut) huzuridagi o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari o‘quvchilariga “Rektor stipendiyasi”ni tayinlash va to‘lash tartibini belgilaydi.

2. “Rektor stipendiyasi” institut huzuridagi o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasasining kunduzgi ta’lim shaklida davlat granti hamda to‘lov-kontrakt asosida ta’lim olayotgan o‘quvchilariga, shu jumladan qizlarga (xorijiy o‘quvchilardan tashqari) qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlardan qat‘iy nazar rag‘batlantirish shaklidagi oyma-oy to‘lanadigan pul ta’minoti hisoblanadi.

3. “Rektor stipendiyasi”ni berish uchun o‘quvchilarni, shu jumladan qizlarni alohida qobiliyati va iqtidoriga ko‘ra aniqlashning mezonlariga to‘g‘ri kelgan hollarda o‘quvchilar mazkur tanlovlarga o‘z tashabbusiga binoan ishtirok etadilar.

4. “Rektor stipendiyasi”ni berish uchun o‘quvchilarni, shu jumladan qizlarni alohida qobiliyati va iqtidoriga ko‘ra aniqlashning quyidagi mezonlari belgilanadi:

**Navoiy davlat pedagogika instituti akademik litseyi tomonidan tavsiya
etilagan nomzodlarni baholash mezonlari**

Nº	Tanlov asosida saralash mezonlari	Maksimal ball	Baholash tartibi
1.	Fanlardan o‘rtacha o‘zlashtirish darajasi	25	86-100% -25 ball 71-85% - 20 ball <i>*Semestr yakuni bo‘yicha olgan baholarning o‘rta arifmetik qiymati 20 ga ko`paytiriladi.</i>
2.	Xorijiy til, umumta’lim fanlaridan Milliy yoki Xalqaro sertifikatni qo‘lga kiritganligi uchun	25	C1, B+,A,A+ - 25 ball B2, C,C+,B – 20 ball <i>* Xorijiy til, umumta’lim fanlaridan Milliy yoki Xalqaro sertifikatning darajasiga qaraladi</i>
3.	Tuman (shahar), viloyat, respublika va xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalarida	25	1-o‘rin 25 ball 2-o‘rin 20 ball 3-o‘rin 15 ball

	faxrli va sovrinli o‘rinlardan birini egallaganligi uchun		
4.	Tuman (shahar), viloyat, respublika va xalqaro miqyosdagi yakka va jamoaviy tartibda o‘tkazilgan sport musobaqalari, ko‘rik-tanlovlarda faxrli va sovrinli o‘rinlardan birini egallaganligi uchun	25	1-o‘rin 25 ball 2-o‘rin 20 ball 3-o‘rin 15 ball
	Jami:	100	

Izoh: G‘oliblar jami ballning 50%i va undan yuqorisini to‘plagan talabgorlar ichidan tanlab olinadi.

Navoiy davlat pedagogika instituti tasarrufidagi professional ta’lim muassasalari tomonidan tavsiya etilagan nomzodlarni baholash mezoni

Nº	Tanlov asosida saralash mezonlari	Maksimal ball	Baholash tartibi
1.	Fanlardan o‘rtacha o‘zlashtirish darajasi	25	86-100% -25 ball 71-85% - 20 ball <i>*Semestr yakuni bo‘yicha olgan baholarning o‘rta arifmetik qiymati 20 ga ko`paytiriladi.</i>
2.	Xorijiy til, umumta’lim fanlaridan Milliy yoki Xalqaro sertifikatni qo‘lga kiritganligi uchun	25	C1, B+,A,A+ - 25 ball B2, C,C+,B – 20 ball <i>* Xorijiy til, umumta’lim fanlaridan Milliy yoki Xalqaro sertifikatning darajasiga qaraladi</i>
3.	Tuman (shahar), viloyat, respublika va xalqaro miqyosdagi yakka va jamoaviy tartibda o‘tkazilgan sport musobaqalari, ko‘rik-tanlovlarda faxrli va sovrinli o‘rinlardan birini egallaganligi uchun	25	1-o‘rin 25 ball 2-o‘rin 20 ball 3-o‘rin 15 ball
4.	Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan kasb-hunarga doir ko‘rik-tanlovlarda respublika, viloyat, tuman (shahar) miqyosida faxrli va sovrinli	25	1-o‘rin 25 ball 2-o‘rin 20 ball 3-o‘rin 15 ball

o‘rinlardan birini egallaganligi uchun		
Jami:	100	

Izoh: G‘oliblar jami ballning 50%i va undan yuqorisini to‘plagan talabgorlar ichidan tanlab olinadi.

5. “Rektor stipendiyasi”ni to‘lash institutning budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

6. “Rektor stipendiyasi” institutining moliyaviy barqarorligidan kelib chiqib bir o‘quv semestrida 5 tagacha (kamida 2 tasi – qizlar uchun) o‘quvchiga berilishi mumkin.

Institut tarkibida ikki va undan ortiq o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari bo‘lganda “Rektor stipendiyasi” mazkur muassasalar uchun har biriga alohida belgilanadi.

7. “Rektor stipendiyasi”ni berish uchun saralashda o‘quvchilarni, shu jumladan qizlar orasida nomzodlar soni belgilanganidan ortiq bo‘lsa va ularning ko‘rsatkichlari bir xil bo‘lsa, u holda oliy ta’lim muassasasi uchun tayinlangan Stipendiya komissiyasi tomonidan nomzodlar uchun qo‘srimcha sinovlar tashkil etiladi yoki oliy ta’lim muassasasining moliyaviy imkoniyati va homiylar ko‘magi asosida beriladigan stipendiyalar soni mutanosib ravishda oshiriladi.

Qo‘srimcha sinovlar Stipendiya komissiyasi tomonidan insho shaklida tashkil etilib, unda talabgorlarga o‘zi o‘qiyotgan ta’lim muassasasiga oid mavzu taqdim etiladi.

2-bob. “Rektor stipendiyasi”ni tayinlash va to‘lash tartibi

8. Institut huzuridagi o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari direktorlari tomonidan mazkur Nizomning 4-bandida nazarda tutilgan mezonlarga muvofiq keluvchi o‘quvchilar aniqlanadi hamda tegishli xulosa tayyorlash (berish) uchun har o‘quv semestrining oxirgi kunidan 10 kun oldin navbatdagi o‘quv semestrida “Rektor stipendiyasi”ni tayinlash uchun institutning stipendiya komissiyasiga taqdim etiladi.

9. Stipendiya komissiyasi tomonidan “Rektor stipendiyasi”ga loyiq ko‘rilgan o‘quvchilar, shu jumladan qizlar ro‘yxati 5 kun muddatda ko‘rib chiqiladi va komissiya xulosasi institutning ilmiy kengashiga tasdiqlash uchun kiritiladi.

10. Institutning Kengashi tomonidan “Rektor stipendiyasi”ga nomzod o‘quvchilar bo‘yicha taalluqli ma’lumotlar ko‘rib chiqiladi hamda “Rektor stipendiyasi”ga sazovor bo‘lgan o‘quvchilar, shu jumladan qizlar bo‘yicha Kengash qarori qabul qilinadi va Rektor buyrug‘i rasmiylashtiriladi.

11. “Rektor stipendiyasi” miqdori oliy ta’lim muassasalari talabalariga tayinlanadigan stipendiyaning bazaviy miqdoriga tenglashtiriladi va o‘quv semestrining birinchi sanasidan boshlab, bir o‘quv semestri mobaynida to‘lanadi.

12. Institutning Kengashi qarori va rektor buyrug‘i asosida “Rektor stipendiyasi”ga sazovor bo‘lgan o‘quvchilar, shu jumladan qizlar uchun tegishli

mablag‘lar institutning budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan joriy o‘quv yilining har bir o‘quv-semestri uchun bir marotaba o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarining rivojlantirish jamg‘armasi shaxsiy hisob varaqlariga o‘tkazish orqali to‘lanadi.

O‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari tomonidan “Rektor stipendiyasi”ni berish uchun mazkur muassasa rektori buyrug‘i rasmiylashtiriladi, ajratilgan mablag‘lar hisobidan “Rektor stipendiyasi” hisoblanadi va to‘lanadi.

13. Har o‘quv-semestri yakuni bo‘yicha institut huzuridagi o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalari direktorlari “Rektor stipendiyasi”ga talabgor bo‘lgan, barcha fanlardan yaxshi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ega, jamoat ishlarida faol ishtirok etgan va namunali xulq atvorga ega o‘quvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oliv ta’lim muassasasi kengashiga taqdim etib boradi.

14. “Rektor stipendiyasi”ga sazovor bo‘lgan o‘quvchilar o‘quv semestri davomida fanlarni o‘zlashtirishni pasaytirib yuborsa va intizomiy jazoga tortilgan taqdirda mazkur stipendiyadan mahrum etiladi.

3-bob. Yakuniy qoidalar

15. “Rektor stipendiyasi”ga nomzodlarni aniqlash, ularni tanlab olish va stipendiya to‘lovleri to‘g‘risidagi ma’lumotlar oliv ta’lim muassasasining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

16. “Rektor stipendiyasi” to‘lovlarining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazorat qilish institutning bosh auditori tomonidan amalga oshiriladi.

17. “Rektor stipendiyasi”ga nomzodlarning tanlov natijalaridan noroziligi bo‘yicha ariza va shikoyatlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

18. Ushbu Nizomni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

19. Mazkur nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javob beradilar.

Navoiy davlat pedagogika institutining
2022 yil 22 sentabrdagi _____sonli
buyrug‘iga 2-ilova

**Navoiy davlat pedagogika instituti tasarrufidagi o‘rta maxsus va
professional ta’lim muassasalarining o‘quvchilariga “Rektor
stipendiyasi”ni tayinlash bo‘yicha stipendiya komissiyasi tarkibi**

№	F.I.SH	Lavozimi
1	X.Qurbanov	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, komissiya raisi
2	I.Nasriddinov	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, komissiya a’zosi
3	S.Xudoyberdiyev	Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, komissiya a’zosi
4	A.Xalikov	Korrupsiyaga qarshi kurashish "Kompleans nazorat" tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i, komissiya a’zosi
5	H.Tursunov	Bosh auditor, komissiya a’zosi
6	L.Xapizov	Bosh hisobchi, komissiya a’zosi
7	B.Xosilov	Akademik litsey va texnikumlarga metodik yordam berish sektori bosh mutaxassis, komissiya a’zosi
8	N.Bekmurodov	Kasaba uyushmasi raisi, komissiya a’zosi
9	B.Zaripov	Jamoatchilik kengashi raisi, komissiya a’zosi
10	M.Amonov	Navoiy davlat pedagogika instituti Navbahor ko‘p tarmoqli texnikum direktori, komissiya a’zosi
11	F.Maxammadqulov	Navoiy akademik litsey direktori, komissiya a’zosi

Komissiya a’zolarining lavozimlari o‘zgarganda ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan shaxslar Komissiya tarkibiga kiritilgan deb hisoblanadi.